Mahalliy va xorijiy iqtisodchilarning lizing munosabatlari mexanizmlarini ishlab chiqishga qo'shgan salmoqli hissasiga qaramay, to'liq o'rganilmagan bir qator muammolar mavjud.

¹ World Investment Report-2021: Investing in sustainable recover. UNCTAD/WIR/2021. https://unctad.org/system/files/official-document/wir2021_en.pdf.



ADABIYOT SHARHI

Milliy iqtisodiyot darajasida investitsiya resurslarining harakati milliy jamg'arma va iste'mol ko'rsatkichlari, xususi investitsiyalar, bank sektori va fond bozorining rivojlanishi, kapitalning transchegaraviy harakati va davlat iqtisodiy siyosati bilan belgilanadi. Bu jihatdan investitsiya resurslarini ko'rib chiqish ishlab chiqarish omillari va kengaytirilgan takror ishlab chiqarish samaradorligi haqidagi zamonaviy g'oyalarga asossolgan J.Sey, A.Smit, D.Rikardo va J.Keyns kabi iqtisodiy fikr asoschilarining asarlariga borib taqaladi².

Iqtisodiy adabiyotlarda investitsiyalar nazariy jihatlarining turli xil talqinlari ko'rib chiqiladi: investitsiya resurslarining investitsion faoliyati, investitsiya resurslarining mohiyatini aniqlashga yondashuvning turli ishlari tahlili hamda investitsiya jarayoni amalga oshiriladi, investitsiyalarning xususiyatlari aniqlanadi va tasniflari ishlab chiqiladi: mulkchilik shakllari bo'yicha, investitsiya resurslari bo'yicha, korxona mablag'lari va resurslarini investitsiya qilish sohalari bo'yicha. Xo'jalik yurituvchi subyektlarning investitsion faoliyatining muhim elementi sifatida lizingning afzalliklari asoslab berilgan, lizing faoliyatining O'zbekiston uchun ta'siri aniqlangan: ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish; lizingga mashina va uskunalar sotib olish orqali ularni modernizatsiya qilish vaqtini qisqartirish; kapitalni qarzga olingan mablag'dan faoliyatga o'tkazish jarayonini tezlashtirish.

Lizing tushunchasi, lizing investitsiyalari mexanizmini tashkil etish va amalga oshirish tamoyillari, turli mualliflarning asarlarida ko'rib chiqiladi, to'lash va qaytarish asosida lizingning tabiati o'rganiladi, lizingni samarali boshqarishning maqsadli yo'nalishlari taklif etiladi. Lizingning ishlab chiqarish, sotish, investitsiya va rag'batlantirish kabi funksiyalari asoslanadi va aniqlanadi hamda lizing ta'rifining turli me'yoriy talqinlari o'rganiladi.

J.Keyns „jamg'arma va investitsiyalar bir-biriga teng bo'lishi kerak, chunki ularning har biri daromadning iste'moldan oshib ketishiga teng“³. J.Keyns, shuningdek, iqtisodiy o'sish uchun asos bo'lgan yalpi talab va investitsiyalarni rag'batlantirishni ta'kidlaydi.

Lizingdan ishlab chiqarishni texnik qayta jihozlashda investitsiyalar manbai sifatida foydalanish tegishli daromad olish uchun maqsadli investitsiyalarni amalga oshirishga imkon beradi, bu esa, o'z navbatida, kapitalni oshirish manbai va investitsiyalarning harakatlantiruvchi rag'bat hisoblanadi. Ilmiy adabiyotlarda investitsiya lizingi iste'molchining tadbirkorlik imkoniyatlarini kengaytirish va bir martalik kapital xarajatlarni kamaytirish maqsadida moliyalashtirish, deb ta'riflanadi⁴.

F.Fabotssining so'zlariga ko'ra, investitsiya jarayoniga lizing mexanizmlarini kiritish odatiy holdir, ularning bosqichlari: moliyaviy imkoniyatlarni baholash, investitsiya maqsadlari va hajmlarini aniqlashni o'z ichiga olgan investitsiya siyosatini tanlash; aktivlarni tanlash; investitsiya samaradorligini baholash, investitsiya qarorini shakllantirish va boshqarish uni amalga oshirishdan iborat⁵.

M.Leshenkoning so'zlariga ko'ra, keng ma'noda lizing deganda mulkni sotib olish va keyinchalik uzoq muddatli ijaraga berish asosida vaqtincha foydalanishga berish bilan bog'liq paydo bo'lgan mulkiy munosabatlarning butun majmuasi tushunilishi kerak⁶.

Aynan shu talqinda lizing qo'llanila boshlandi va xorijiy va mahalliy nazariya va amaliyotda qo'llaniladi.

V.Mironenkoning fikricha, investor – bu lizing bitimini moliyalashtirishda ishtirok etadigan shaxs (moliya institutlari – banklar, investitsiya fondlari, sug'urta kompaniyalari va boshqalar)⁷.

V.Goremikin o'z ishida lizing funksiyalarining eng yirik ro'yxatini beradi va o'n uchta funktsiyani ta'kidlaydi, ulardan to'rttasi Ye.Chekmarevoy tomonidan taklif qilingan funksiyalarga to'liq mos keladi. Qolgan to'qqiztasi quyidagilar: mablag'larning biznes zonasini kengaytirish, raqobatbardosh munosabatlarni rivojlantirish, mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish, tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish, mulk qiymatini qoplash, mulk egasi va foydalanuvchisini tabaqalashtirish, xususi mulkdorni ko'paytirish, umumiy mulkchilikning ikkilanishini bartaraf etish, mulkni tabaqalashtirish⁸.

Shuni ta'kidlash kerakki, dunyoda lizing munosabatlarining katta tajribasiga qaramay, lizingning mohiyati to'g'risida kelishuv mavjud emas, hozirgi vaqtda turli xil talqinlar qo'llanilmoqda:

- 2 Ж.Кейнс Общая теория занятости, процента и денег. М., 2011. С. 98. Smithies, A. Forecasting Postwar Demand: I / A. Smithies // Econometrica. – 1945. – Vol. 13. – No. 1. – P. 1–14. Жан Батист Сэй (1828-1830). «Трактат политической экономии, или простое изложение способа, которым образуются, распределяются и потребляются богатства». Давид Рикардо «Начала политической экономии и налогового обложения» (1817).
- 3 Ж.Кейнс Общая теория занятости, процента и денег. Избранное / Дж.М. Кейнс; вступ. статья Н.А. Макашевой. – М.: Эксмо, 2007. – с. 89
- 4 Андрійчук В. Методологічні і методичні засади обґрунтування параметрів угоди фінансового лізингу в аграрному секторі / В. Андрійчук, О. Радіоненко // Економіка України. – 2002. – № 10. – С. 56-64., Рошило В.І. Джерела фінансування інноваційного розвитку: моногр. / В.І. Рошило. – Чернівці: Книги – XXI, 2006. – 272 с.
- 5 Ф.Фаботци Управление инвестициями. – М.: Инфра -М, 2000. 932 с, Шарп У. Ф., Александер Г. Дж., Бэйли Дж. В. Инвестиции. – М.: Инфра – М, 1999. – 1055 с
- 6 Лещенко М.И. Основы лизинга: Учебное пособие / М.И. Лещенко. – Финансы и статистика, 2015. –С. 14.
- 7 Мироненко В. О. Понятие, сущность и виды лизинга/ В. О. Мироненко. - Текст: непосредственный, электронный// Проблемы и перспективы экономики и управления: материалы VI Междунар. науч. конф. Санкт-Петербург: Свое издательство, 2017. - С. 70.
- 8 Горемыкин В. Основы технологии лизинговых операций: – М.: Ось. – 89, 2000г. – 16 с., – 220 с.




- lizing vaqtincha bo'sh yoki jalb qilingan moliyaviy resurslarni investitsiya kreditlash shakllaridan biri sifatida qaraladi (M.Djovanoli)⁹;
- lizing o'zaro bog'liq, iqtisodiy va huquqiy, qarz olishga asoslangan ijara munosabatlarining maxsus turi vositachiligida, shu jumladan, moliya-kredit munosabatlari majmui sifatida qaraladi (D.Gazibekov)¹⁰;
- lizing mulkchilik munosabatlarini amalga oshirish usuli sifatida belgilanadi: lizing beruvchida qolgan ijaraga olingan aktivni tasarruf etish huquqini davriy to'lovlar evaziga lizing oluvchiga o'tadigan mulk huquqi va foydalanish huquqidan ajratish (Ye.Chekmareva)¹¹.

ASOSIY QISM (METODOLOGIYA, NATIJALAR)

Lizing mexanizmi o'zi bilan xo'jalik yurituvchi subyektlar investitsion faoliyatining muhim elementini ifodalashi, lizing faolligini rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash choralari ko'plab xorijiy davlatlarning investitsiya siyosatiga kiritilganligi ko'rsatib berilgan. European Federation of Equipment Leasing Company Association (Leaseurope) fikriga ko'ra, lizingning ommalashuvi va uning faollashish xususiyati mamlakatda iqtisodiy rivojlantirish darajasi ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi¹².

Yuqorida bayon etilganlardan kelib chiqqan holda, muallifning fikriga ko'ra, bozorda raqobat kuchayishi sharoitida yuzaga keluvchi cheklangan moliyaviy resurslar tadbirkorlarni muqobil manbalardan investitsiyalarni jalb etish orqali texnologik jarayonlarni takomillashtirishga undaydi. Shu tariqa, lizing sohasidagi iqtisodiy munosabatlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, soliqlar tortish, moliya-kredit siyosati, institutlar va infrazuzilmani rivojlantirish, sug'urtalash va boshqa mexanizmlar orqali tartibga soluvchi yangi makroiqtisodiy muhit yuzaga keladi (1-rasm).



1-rasm: O'zbekiston Respublikasida lizing xizmatlari bozorining makroiqtisodiy muhiti¹³

9 M. Giovanoli. Le credit-bail (leasing) en Europe : developpement and nature juridique. – P., 1980, P.

10 Газибеков Д.Г., Сабиров О.Ш. Лизинг и его развитие в Узбекистане. – Ташкент, 2001. – с 131.

11 Чекамарева Е. Лизинговый бизнес. – М.: Экономика, 1994г. с.5.– с.17-24.

12 Rapport sur le contrat de credit-bail (leasing). UNIDROIT. 1975. EtudeLIX – Doc. 1. P. 17.

13 Muallif ishlanmasi.



“Lizing faoliyatini qo‘llab-quvvatlash maxsus jamg‘armasi”ni tashkil etish lizing munosabatlarini yanada takomillashtirish, lizing subyektlari faoliyatini moliyaviy qo‘llab-quvvatlashni va kafolatlashni ta‘minlash, ularni davlat tomonidan tartibga solishning yangi mexanizmlarini joriy qilish, lizing kompaniyalarining kredit resurslaridan samarali foydalanish imkoniyatini kengaytirish va shu asosda ishlab chiqarish jarayonlarini zamonaviylashtirishga va yangi ish o‘rinlarini tashkil etishga xizmat qiladi.


Maxsus jamg‘arma vazifalari sifatida quyidagilar taklif qilinadi:

- lizing kompaniyalariga xorijiy kredit liniyalarini jalb qilish hisobiga milliy va xorijiy valyutadagi resurslarni jalb qilish imkoniyatini berish;
- lizing kompaniyalariga tijorat banklari tomonidan berilayotgan kreditlar bo‘yicha kafil bo‘lish;
- lizing kompaniyalariga jamg‘arma tomonidan tijorat banklari kreditlari foizlari bo‘yicha 50% miqdorida kompensatsiya berish shaklida moliyaviy yordam ko‘rsatish.

Mazkur kontekstda, lizing-ijara, lizing-kredit, lizing-bo‘lib-bo‘lib to‘lash tushunchalarini qiyosiy tahlil qilish asosida, shuningdek, lizing munosabatlarini rivojlantirishning o‘ziga xos xususiyatlari va jahon tendensiyalarini hisobga olgan holda, muallif tomonidan “lizing investitsiyalari” ta‘rifining yangi talqini taklif etilgan. Yuqorida keltirilgan ta‘riflarni umumlashtirish va tizimlashtirish asosida quyidagi ta‘rif asoslangan: “lizing investitsiyalari – innovatsion jarayonlarni jadallashtirishni hisobga olgan holda iqtisodiyotning real sektorini modernizatsiya qilish va asosiy ishlab chiqarish fondlarini yangilash maqsadida lizing kompaniyalarining o‘z mablag‘lari yoki jalb qilingan mablag‘lari hisobiga asosiy kapitalga investitsiya kiritish mexanizmi”.

Rivojlangan mamlakatlarning lizing bozorini tahlil qilish shuni ko‘rsatdiki, lizingning asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalardagi ulushi qator yillar davomida AQSHda 29-31 foizni, Buyuk Britaniyada – 24,8 foizni, Italiyada – 19,2 foizni, Germaniyada – 18,6 foizni tashkil etgan¹⁴.

2017–2022-yillarda respublikada lizing xizmatlari bozorini rivojlantirish, lizing xizmatlari ko‘rsatuvchi tashkilotlar faoliyatini tartibga solish va rag‘batlantirish, lizing amaliyotlarini o‘tkazishni takomillashtirish, tadbirkorlik subyektlarining bu turdagi investitsiya xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish bo‘yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirildi (2-rasm).



2-rasm: Yangi lizing amaliyotlari hajmi, soni va portfelinin o'sish suratlari (mlrd. so'm)¹⁵

Respublikada lizing munosabatlarini rivojlantirish tendensiyalarining keng qamrovli tahlili shuni ko‘rsatdiki, lizing amaliyotlari hajmining o‘shish sur‘ati 2022-yilda 2017-yilga nisbatan lizing portfelinin hajmi 2,3 martda oshgan, yoki 2684 mlrd so‘mdan 6182 mlrd so‘mgacha. Yangi lizing operatsiyalarini soni 7729 tadan 9443 tagacha oshdi) ni tashkil etdi, bunga bozorda Fincom kompaniyasining paydo bo‘lishi xam sabab bo‘ldi¹⁶. 2020-yildagi COVID-19 oqibatlarini hisobga olgan holda lizing amaliyotlari soni mos ravishda 47,1 foizga kamayib, 5875 (dona) ni tashkil etdi.

Lizingli investitsiyalash mexanizmining mohiyatini tushunish uning imkoniyatlarini kengaytirish imkonini beradi va lizing operatsiyalarida bir vaqtning o‘zida barcha ishtirokchi xo‘jalik yurituvchi subyektlarga tegishli mulkka egalik qilishning ikki tomonlamaligi institutsional asosni takomillashtirishni talab etadi¹⁷.

¹⁴ White Clarke Group Global Leasing Report 2020.

¹⁵ O‘zbekiston lizing beruvchilar assotsiatsiyasining “2022-yil yakunlari bo‘yicha O‘zbekistonda lizing xizmatlari sektor sharhi” ma‘lumotlari bo‘yicha mualliflashnmasi.

¹⁶ На рынок Узбекистана вошла новая международная компания FINCOM group – группа компаний, объединившая лучших специалистов и консультантов – юристов, аудиторов, бухгалтеров и специалистов в сфере налогового планирования, адвокатов, специалистов в сфере сопровождения процедур банкротства и HR, которая имеет географию лизинговой деятельности на территории России, Израиля, и США.

¹⁷ Muallif tomonidan aniqlangan.



Milliy qonunchilikda lizing munosabatlari moliyaviy faoliyat turi sifatida taqdim etilgan bo'lib, u investitsiya jarayonining bir qismi sifatida lizingning mohiyati va o'ziga xos xususiyatlarini to'liq ochib bermaydi. O'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatdiki, O'zbekiston Respublikasida mavjud bo'lgan me'yoriy-huquqiy hujjatlar lizing kompaniyalari faoliyatini rivojlantirish uchun zarur institutsional asoslarni yaratdi. Shu bilan birga, mavjud qonun hujjatlarining ayrim qoidalari asosiy fondlarni yangilashni, shuningdek, milliy iqtisodiyotning real sektorini modernizatsiyaashni investitsiyalar bilan qo'llab-quvvatlash masalasida lizing munosabatlari imkoniyatlarini cheklaydi (1-jadval).

1-jadval: O'zbekiston Respublikasining "Lizing to'g'risida"gi qonuniga taklif etilayotgan o'zgartirishlar¹⁸

Mavjud qoida	Taklif
8-modda. Lizing faoliyati	
Lizing faoliyati – lizing beruvchi tomonidan lizing obyektni o'z va (yoki) jalb etilgan mablag'lari hisobidan sotib olish va uni lizing oluvchiga topshirish bo'yicha investitsiya faoliyati turi	Lizing – lizing beruvchi tomonidan o'z va (yoki) jalb etilgan mablag'lar hisobiga lizing obyektni sotib olish va lizing shartnomasi bo'yicha jismoniy va yuridik shaxslarga (lizing oluvchiga) berish bo'yicha investitsiya faoliyati turi
2-modda. Lizing tushunchasi	
Lizing – moliyaviy ijaraning alohida turi bo'lib, unda bir taraf (lizing beruvchi) ikkinchi tarafning (lizing oluvchining) topshirig'iga binoan uchinchi tarafdan (sotuvchidan) lizing shartnomasida shartlashilgan mol-mulkni (lizing obyektni) mulk qilib oladi va uni lizing oluvchiga shu shartnomada belgilangan shartlarda haq evaziga egalik qilish va foydalanish uchun o'n ikki oydan ortiq muddatga beradi.	Lizing – investitsiya mexanizmi bo'lib, unda bir taraf (lizing beruvchi) boshqa tarafning (lizing oluvchining) topshirig'iga ko'ra uchinchi shaxsdan (sotuvchidan) lizing shartnomasida kelishib olingan mulkni (lizing obyektni) egaligiga oladi va uni lizing oluvchiga o'n ikki oydan ortiq muddatga egalik qilish va foydalanish uchun mazkur shartnomada belgilab qo'yilgan shartlar bo'yicha haq evaziga beradi
O'zbekiston Respublikasining "Lizing to'g'risida"gi Qonuni 9-modda.	
Lizing obyektni oldi-sotdi shartnomasi bilan sotib olishni cheklaydi	Taraflar qanday turdagi shartnoma tuzishni va taraflar soni qancha bo'lishini mustaqil ravishda hal qilish huquqiga ega bo'lishi kerak. "Oldi-sotdi shartnomasi" iborasini "xarid qilish shartnomasi"ga almashtirish maqsadga muvofiq
O'zbekiston Respublikasining "Lizing to'g'risida"gi Qonuni, 3-modda	
Tadbirkorlik faoliyati uchun foydalaniladigan iste'mol qilinmaydigan har qanday ashyolar, shu jumladan korxonalar, mulkiy komplekslar, binolar, inshootlar, uskunalar, transport vositalari hamda boshqa ko'char va ko'chmas mulk lizing obyektlari bo'lishi mumkin. (lizing oluvchilar, masalan, jismoniy shaxslar, innovatsion va ijtimoiy loyihalar, startaplar, yakka tartibdagi tadbirkorlik va boshq. tarkibini cheklaydi)	"Tadbirkorlik faoliyati uchun foydalaniladi" degan so'zlarni olib tashlagan holda, "Agar qonun hujjatlarida boshqacha tartib o'rnatilmagan bo'lsa, lizing obyekti bo'lib har qanday iste'mol qilinmaydigan ashyolar hisoblanishi mumkin", (ushbu qoidalar avtotransport vositalari, iste'mol, qaytariluvchi, tezkor, leverij, intellektual mulk obyektlari va boshq. lizing rivojini sekinlashtiradi)

Lizing munosabatlarining qonun hujjatlari bazasini takomillashtirish zarurati quyidagi qoidalarni amalga oshirish bilan bog'liq:

- asosiy kapitalga investitsiya kiritishda lizing mexanizmi ulushini oshirish uchun shart-sharoitlar yaratish;
- ishlab chiqarishni texnologik modernizatsiya qilish, shu jumladan moliyaviy imkoniyatlari cheklangan tadbirkorlar uchun investitsiya manbalarini kengaytirish;
- moliya institutlari o'rtasida raqobatni rivojlantirishga, iqtisodiyotning real sektori subyektlari uchun investitsiya manbalarini kengaytirishga yordam beradi;
- qo'shimcha garovni talab etmaydi, lizing oluvchining talablariga muvofiq uskunalar bilan ta'minlaydi, shuningdek investitsiya loyihalariga servis xizmatini ko'rsatib boradi;
- O'zbekiston Respublikasining "Uskunaning xalqaro ijarasi to'g'risida"gi konvensiyada (Ottava, 1988-yil 28-may) ishtirok etishi umumiy lizing rejasi bo'yicha uskunalar yetkazib beruvchilarning xalqaro bozoriga chiqish imkonini beradi.

Davlat tomonidan tartibga solishning joriy etilishi lizing bozorini tashkil etishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, bu borada o'rganishlar quyidagilarni asoslaydi:

- investitsiya dasturlarini amalga oshirishda lizingni tartibga solish funksiyalarini O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy rivojlanish va kambag'allikni qisqartirish vazirligiga, nazorat funksiyalari esa O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga o'tkazish mumkin;

¹⁸ Muallif ishlanmasi.



- lizing faoliyatining o'z-o'zini tartibga solish (SRO) konsepsiyasi ilgari surilmoqda. O'z-o'zini tartibga soluvchi tashkilot lizing amaliyotlarini o'tkazish mezonlari va qoidalarini ishlab chiqishi va ularning barcha a'zolar tomonidan bajarilishini ta'minlashi, shuningdek, lizing xizmatlari iste'molchilarining huquq va manfaatlarini himoya qilish tizimini yaratishi va qo'llab-quvvatlashi kerak (O'zbekiston Lizing beruvchilar assotsiatsiyasi);
- lizing kompaniyalarining o'z mablag'lari miqdori masalasi yuzaga keluvchi, o'z kapitalining yetarlilik mezonini bo'yicha lizing kompaniyalari reyestrini joriy etish zarurati taklif etiladi. Lizing kompaniyalari kapitalining yetarliligi me'yorlarining joriy etilishi investor va kredit beruvchilar uchun lizing kompaniyalari faoliyatining ochiqqligi va shaffofligini oshirish imkonini beradi.

Shunday qilib, lizing xizmatlari bozorining yuqori darajada rivojlanganligi iqtisodiy o'sish sur'atlarini jadal-lashtirish hisobiga mamlakatning uzoq muddatli makroiqtisodiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, kapital jamg'arilishiga xizmat qiladi.

TADQIQOTNING XULOSALARI VA KEYINGI ISTIQBOLLARI

Jahon tendensiyalariga tayangan holda, lizing investitsiyalari siyosatining samarali vositasi ekanligi, ishlab chiqarishni rivojlantirishda muhim o'rin tutishi aniqlandi. Faoliyatning ushbu turi kredit, investitsion va moliyaviy amaliyotlar tarkibiy qismlarini o'zida mujassam etgan o'ziga xos iqtisodiy tabiati tufayli haqiqatan iqtisodiy o'sishga hissa qo'shishi mumkin.

Rivojlanish instituti sifatida lizing investitsiyalarining iqtisodiy toifasi izohlab berilgan va lizing-ijara, lizing-kredit, lizing-bo'lib-bo'lib to'lash tushunchalarining qiyosiy tahlili, lizingning investitsiyalarni moliyalashtirish mexanizmi sifatidagi funksiyalarini belgilash orqali amalga oshiriladi.

Investitsiyalarning nazariy jihatlarini, iqtisodiy adabiyotlardagi turli talqinlar: investitsiya resurslarining investitsion faoliyati, investitsiya resurslarining ahamiyatini aniqlashga turli yondashuvlar tahlili, investitsiya jarayoni amalga oshirish va investitsiyalarning klassifikatsiyalari ishlab chiqish: mulkchilik shakllari bo'yicha, korxo-naning mablag'lari va resurslarini investitsiyalash sohalari bo'yicha.

Tadbirkorlik subyektlari investitsiya faoliyatining muhim elementi sifatida lizingning afzalliklari asoslab berildi, lizing faoliyatining O'zbekistonga ta'siri aniqlandi: ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish; ijaraga mashina va uskunalarni sotib olish yo'lida ularni modernizatsiya qilish vaqtini qisqartirish; qarzgga olingan kapitaldan ope-ratsion kapitalga o'tishni tezlashtirish, bu esa biznes sektoridan investitsiyaviy talabni rag'batlantiradi.

Lizing investitsiya mexanizmini tashkil etish va amalga oshirish tamoyillari, turli mualliflarning ishlarida "lizing" tushunchasi ko'rib chiqildi, lizingning dolzarbligi, to'lov va qaytarishlar asosida amalga oshirilishining mohiyati o'rganildi, lizingni samarali boshqarish bo'yicha maqsadli ko'rsatmalar taklif etildi. Ishlab chiqarish, sotish, investitsiyalar va rag'batlantirish kabi lizingning vazifalari asoslandi va belgilandi, ijarani belgilovchi turli mamlakatlarning me'yoriy-huquqiy talqini o'rganildi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Андрійчук В. Методологічні і методичні засади обґрунтування параметрів угоди фінансового лізингу в аграрному секторі / В. Андрійчук, О. Радіоненко // Економіка України. – 2002. – № 10. – С. 56-64., Рошило В.І. Джерела фінансування інноваційного розвитку: моногр. / В.І. Рошило. – Чернівці: Книги – XXI, 2006. – 272 с.
2. Горемыкин В. Основы технологии лизинговых операций: – М.: Ось - 89, 2000 г. – 16с., – 220 с.
3. M. Giovanoli. Le credit-bail (leasing) en Europe : developpement and nature juridique. – P., 1980, P.
4. Газибеков Д.Г., Сабилов О.Ш. Лизинг и его развитие в Узбекистане. – Ташкент, 2001. – с 131.
5. Ж.Кейнс Общая теория занятости, процента и денег. М., 2011. С. 98. Smithies, A. Forecasting Postwar Demand: I / A. Smithies // Econometrica. – 1945. –Vol. 13. –№. 1. – P. 1–14. Жан Батист Сэй (1828-1830). "Трактат политической экономии, или простое изложение способа, которым образуются, распределяются и потребляются богатства". Давид Рикардо "Начала политической экономии и налогового обложения" (1817).
6. Ж.Кейнс Общая теория занятости, процента и денег. Избранное / Дж.М. Кейнс; вступ. статья Н.А. Макашевой. – М.: Эксмо, 2007. – с. 89.
7. Лещенко М.И. Основы лизинга: Учебное пособие / М.И. Лещенко. – Финансы и статистика, 2015. –С. 14.
8. Мироненко В. О. Понятие, сущность и виды лизинга/ В. О. Мироненко. - Текст: непосредственный, электронный// Проблемы и перспективы экономики и управления: материалы VI Междунар. науч. конф. – Санкт-Петербург: Свое издательство, 2017. – С. 70.
9. Ф.Фабозци Управление инвестициями. – М.: Инфра -М, 2000. 932 с, Шарп У. Ф., Александер Г. Дж., Бэйли Дж. В. Инвестиции. – М.: Инфра – М, 1999. – 1055 с.
10. Чекмарева Е. Лизинговый бизнес. – М.: Экономика, 1994г. – с.5, – с.17-24.
11. Rapport sur le contract de credit-bail (leasing).UNIDROIT. 1975. EtudeLIX – Doc. 1. – P. 17.
12. O'zbekiston lizing beruvchilar assotsiatsiyasining "2022-yil yakunlari bo'yicha O'zbekistonda lizing xizmatlari sektor sharhi" ma'lumotlari bo'yicha muallifishlanmasi.
13. World Investment Report-2021: Investing in sustainable recover. UNCTAD/WIR/2021.https://unctad.org/system/ files/ official-document/wir2021_en.pdf.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.